



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHKENT
SHAHRINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2022- *yil*
yanvar-dekabr



TOSHKENT SHAHRINING DOIMIY AHOLISI*2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Toshkent shahrida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **2955,7** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **93,3** ming kishiga yoki **3,3 %** ga ko'paydi.


Doimiy aholi soni**2955,7** ming
kishi**Tabiiy o'sish****+57,4** ming
kishi**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi***2023- yil 1- yanvar holatiga***Erkaklar****1449,3** ming kishi**Ayollar****1506,4** ming kishi**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi , ming kishi**

Toshkent shahri bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Toshkent shahar doimiy aholisi sonining **27,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **15,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	2862,4	2955,7	103,3
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	285,9	293,5	102,7
Bektemir	51,2	55,7	108,8
Yunusobod	359,0	366,9	102,2
Mirzo-Ulug'bek	313,9	323,1	102,9
Mirobod	146,0	149,5	102,4
Shayxontoxur	354,5	360,5	101,7
Olmazor	385,5	395,0	102,5
Sergeli	146,4	162,3	110,9
Yakkasaroy	124,0	126,9	102,3
Yashnobod	278,5	289,4	103,9
Yangihayot	150,9	161,0	106,7
Chilonzor	266,6	271,9	102,0

*Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o'zgarish bo'lgan

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

35,9 ming kishi

O'g'il bola:


38,0 ming kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **73,9** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **51,4 %** ni, qiz bolalar **48,6 %** ni tashkil etadi.

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022 yil yanvar-dekabr



2022- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,6%**
- 2 nafar – **2,3%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1%**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

yanvar-dekabr holatiga, kishi

	2021- yil	2022- yil	O‘sish sur’ati, % da
Toshkent shahar	63034	73879	117,2
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	8272	8678	104,9
Bektemir	1112	1644	147,8
Yunusobod	7655	9101	118,9
Mirzo-Ulug‘bek	4913	6514	132,6
Mirobod	2715	3315	122,1
Shayxontohur	8288	8425	101,7
Olmazor	9558	10611	111,0
Sergeli	3270	5383	164,6
Yakkasaroy	1959	3010	153,6
Yashnobod	5609	6563	117,0
Yangihayot	3744	3740	99,9
Chilonzor	5939	6895	116,1

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **73,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **25,4** promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan plus **3,1** promillega ko'paygan (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **22,3** promille bo'lgan).




VAFOT ETGANLAR



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **16,5** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan minus **1,0** promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,7** promille).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, kishi




2022- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **60,0** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **12,7** % i – o’simtalardan, **6,3** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **4,6** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,6** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **3,0** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **8,8** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **22,4** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,1** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2022- yil yanvar-dekabr oylarida **5,9** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **2,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan ko‘rsatkich o‘zgarmaganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **2,0** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning **32,1** % i farzandsiz, **40,8** % i bitta farzand bilan va **27,0** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahar bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **99064** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **63219** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi **+35845** kishini tashkil etadi. 2021 yilning mos davrida **+38259** kishi bo‘lgan.

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, (ming kishi)




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **99,1** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **34,1** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-5,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **39,7** promille bo'lган).

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, (ming kishi)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **63,2** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **21,7** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-4,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **26,1** promille bo'lган).



Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaсидаги farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 71 203-88-23, 48